XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 29-iyul VII-20-77-8-108-K/26 Oltinsoy tumani

Oltinsoy tumanida “Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan geografik obektlarni nomlash, o‘zgartirish va tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 27-oktabrdagi “Geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi”gi 05-19-18474-sonli ekspertiza xulosasi, tuman hokimi O.Mavlyanovning Geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini ko’rib chiqish to’g’risida 2026-yil 3-iyundagi 01-49/71-sonli xati ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-son Qonuni 10-moddasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Oltinsoy tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 27-oktabrdagi yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 05-19-18474-sonli xulosasi, Oltinsoy tuman hokimligi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisining 2026-yil 3-iyundagi 01-49/71-sonli xati inobatga olinsin va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oltinsoy tuman hokimligi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi”ning Respublika ekspert

komissiyasining xulosasi bilan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan tumandagi 16 ta ko‘cha nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman Uy-joy qurilish va kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali, tuman Soliq inspeksiyasi, tuman Statistika bo‘limi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman Davlat xizmatlari markazi va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari birgalikda:

-qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan tumandagi 16 ta ko‘cha nomi bo‘yicha ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4.Oltinsoy tumani hokimining o‘rinbosari (T.Chorshanbiyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan ko‘chalar va mahalla nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishdagi O‘zDSt texnik shartlariga javob beradigan peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etsin.

5.Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

6.Oltinsoy tuman Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (T.Chorshanbiyev)ga 15 kun muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan tumandagi 16 ta ko‘chalar nomlarni davlat reyestriga kiritish uchun tegishli hujjatlar taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7.Tuman hokimligi matbuot xizmati (U.Abdurasulov)ga mazkur qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinsin.

8.Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mamatmuratov)ga zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **TURDIYEV AKRAM ABDIMURATOVICH**

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2026-yil 29-iyuldagi
VII-20-77-8-108-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Oltinsoy tumanidagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Respublika ekspert komissiyasining xulosasi bilan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan ko ‘cha nomlari RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi (X,Y)		Geografik obyektning bog‘lanishi *(mahalla*	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining izohi	Ekspert komissiyasining xulosasi
		Boshlang‘ich	Oxirgi					
1.	Ko‘cha	69° 15'43,894" E 40° 56' 12,424" N	69° 15'49,364" E 40° 56' 24,145" N	Jiyanbobo	**Jiydali**	Jadidlar	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Berk ko‘cha	69° 15'43,894" E 40° 56' 12,424" N	69° 15'49,364" E 40° 56' 24,145" N	Jiyanbobo	Nomsiz	Jadidlar 1-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Berk ko‘cha	69° 15'47,650" E 40° 56'21,235" N	69° 15' 54,172" E 40° 56' 19,147" N	Jiyanbobo	Nomsiz	Jadidlar 2-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Berk ko‘cha	69° 21'38,490" E 40° 50' 38,872" N	69° 21'50,981" E 40° 5 G 0,620" N	Jiyanbobo	Nomsiz	Jadidlar 3-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Ko‘cha	69° 2 G 43,313” E 40°	69° 21'45,641" E	Sohibkor	Nomsiz	Farahbaxsh	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri	Qonun hujjatlari talablariga

		50'38,308" N	40° 50' 56,201 "N				ko‘rsatilgan.	muvofiq.
6.	Tor ko‘cha	69° 21'43,313" E 40° 50' 38,308" N	69° 21'45,641 "E 40° 50' 56,201" N	Sohibkor	Nomsiz	Farahbaxsh tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Ko‘cha	69° 22' 6,864" E 40° 50'51,458" N	69° 22' 6,864" E 40° 50'51,458" N	Yangiqurilish	Nomsiz	Tabiat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Ko‘cha	69° 17' 5,780" E 40° 53' 45,846" N	69° 16’ 43,153" E 40° 54' 14,453" N	Batosh	Nomsiz	Oqsaroy 6-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Tor ko‘cha	69° 21' 11,689" E 40° 52' 10,389" N	69° 2 G 3,044" E 40° 53'6,710" N	Jobu	Nomsiz	Paxtachi	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Ko‘cha	69° 21’6,192" E 40° 52' 24,033" N	69° 20’ 53,725" E 40° 52' 28,620" N	Ekraz	Nomsiz	O‘qituvchilar	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Berk ko‘cha	69° 21'29,486" E 40° 52' 19,148" N	69° 21' 8,225" E 40° 52' 23,192"N	Navro‘z	Nomsiz	Rohat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Berk ko‘cha	69° 2G 6,937" E 40° 52' 22,215" N	69° 20' 59,726" E 40° 52' 16,684" N	Qorliq	Nomsiz	Salomatlik	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Ko‘cha	69° 2 G 2,290" E 40° 52' 14,075" N	69° 21'8,865" E 40° 52' 16,055" N	Yangiariq	Nomsiz	Semurg‘	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Ko‘cha	69° 20' 52,535" E 40° 48' 31,061" N	69° 20' 14,394" E 40° 48' 59,044" N	Nurafshon	Nomsiz	Tarovat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

15.	Berk ko‘cha	69° 20' 34,969" E 40° 48' 49,000" N	69° 20' 29,331" E 40° 48' 47,880" N	Dug‘oba	Nomsiz	Yangi asr-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Berk ko‘cha	69° 20'35,882" E 40° 48' 47,841" N	69° 20' 59,034" E 40° 48' 47,510" N	Shoxcha	Nomsiz	Zarzamin-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.